XALQ DEPUTATLARI QUMQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 8-yanvar VII-14-1-8-114-K/26 Qumqo‘rg‘on tumani

2026-yilda Qumqo‘rg‘on tumanidagi yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk hamda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer solig‘i, suv solig‘i va yer qaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini 2026-yil uchun belgilash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-, 429- va 437-moddalariga asosan tumanda 2026-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash va tumanda yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1.Qumqo‘rg‘on tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 17-dekabrdagi 14-10006-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Eshqobilov, Tuman Soliq inspeksiyasi (B.Turdiyev)ga:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning **1 kv.m** uchun mutloq miqdorda belgilangan minimal qiymatda bo‘lishini nazorat qilish;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning **1 kv. m** uchun mutloq miqdori **1 390 000** *(bir million uch yuz to‘qson ming)* **so‘m** belgilanganligi minimal qiymatda bo‘lishi yuzasidan “Surxondaryo” televideniyesi bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirish hamda televideniye orqali keng ommaga taqdim etish;

minimal qiymat bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qishloq joylarida keskin oshib ketishining oldini olish maqsadida, xalq deputatlari tumanda Kengashi belgilagan minimal qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, **0,5 gacha** kamaytiruvchi koeffitsiyent kiritish;

yuridik shaxslar tomonidan mavjud mol-mulklari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

2026-yil 1-fevralga qadar soliq to‘lovchilarni qo‘llab-quvvatlash va e’tirof etish maqsadida 2025-yil davomida mol-mulk soliqlarini belgilangan tartibda va muddatda to‘lashda faol bo‘lgan har bir tumandan kamida 3 tadan yuridik shaxslarni moddiy va ma’naviy tomonlama rag‘batlantirish takliflarini kiritish vazifalari yuklatilsin.

3.Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatga nisbatan koeffitsiyenti **va** O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida *(yuridik)* qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlari **1-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida 2026-yilda Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin

4. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Eshqobilov, tuman Soliq inspeksiyasi (B.Turdiyev):

yer solig‘ining amaldagi stavkalari yuridik shaxslar 1 gektarga **49,010 mln. so‘m** va jismoniy shaxslar **1 kv. m** ga **420,19 so‘m**, yuridik shaxslar uchun **1,30-1,53** koeffitsiyentgacha va jismoniy shaxslar **1,2-1,5** koeffitsiyentgacha indeksatsiya qilinishi qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan **(R.Mengziyayeva)ga “Qumqo‘rg‘on sadosi ” gazetasi tahririyati** orqali keng ommaga taqdim etish;

belgilangan yer solig‘i stavkalariga *(yuridik va jismoniy shaxslarning)* qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida **0,5 dan 2,0 gacha** kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab bersin;

xalq deputatlari tuman Kengashlari tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini **5 (besh) kun** ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlasin;

10 (o‘n) kun muddatda 2025-yil davomida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer soliqlarini belgilangan muddatda va miqdorda faollik bilan to‘lagan tumandagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarni mahalliy budjet hisobidan moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish to‘g‘risida tegishli xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga takliflarini kiritsin;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olsin, **har chorak yakunida** yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlar to‘g‘risida hamda yuridik shaxslarga hisoblangan mol-mulk solig‘i va undirilgan boshqa soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Norbayev), “Qumqo‘rg‘on sadosi ” gazetasi tahririyati (R.Mengziyayeva)ga mazkur loyihani amalga oshirishdan maqsad va uning tuman iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida Qumqo‘rg‘on sadosi gazetasi sahifalar orqali ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman Kengashining 2025-yil 3-fevraldagi “Qumqo‘rg‘on tumanida2025-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning minimal qiymatiga nisbatan koeffitsiyent qo‘llash to‘g‘risida” va “Qumqo‘rg‘on tuman yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida” VII-4-14-8-114-K/25-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Z.Eshqobilov) bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (B.Mamarajapov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi

Sessiya raisi **ABDIMUMINOV BAYMURAT XXX**

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2026-yil 8-yanvardagi
VII-14-1-8-114-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Qumqo‘rg‘on tumaniga 2026 yilda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq solishda minimal qiymatga qo‘llaniladigan koeffittsent miqdori

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida ushbu Kodeks 412-moddasi ikkinchi qismining 1-bandida nazarda tutilgan ob’ektlarga nisbatan soliq bazasi quyidagi miqdorlarda 1 kv. metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatdan past bo’lishi mumkin emas

T/r	Hududlar va shahar va tuman nomi	Tasdiqlangan eng kam qiymat	Koeffitsent	Belgilangan eng kam qiymat
1	Qumqo‘rg‘on tuman	1 390 000,00	1,0	1 390 000,00

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari ushbu bandda belgilangan eng kam qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab **0,5 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi koeffitsient kiritishi mumkin.**

Qumqo‘rg‘on tumaniga bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2026 yil uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsent miqdori

*O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida yuridik shaxslarning **qishloq xo‘jaligi** uchun mo‘ljallanmagan yerlarining bazaviy soliq stavkalari respublika hududlari kesimida **1 gektar uchun mutlaq o‘lchamda** quyidagi miqdorlarda belgilanadi:*

T/r	Mahalla nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar yer solig‘i bo‘yicha, 1 kv.m uchun *(turar joylar uchun belgilangan o’sish me’yoridan oshmagan holda)*	
		Koeffittsent miqdori *(0,7 dan 3,0 gacha)*	Yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun *(so’mda)*	Koeffittsent miqdori *(0,7 dan 3,0 gacha)*	Yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun *(so’mda)*
1	Achamoyli MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,06
2	Arig‘oshgan MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14

3	Arpapoya MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
4	Arslonboyli MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
5	Azlarsoy MFY	0,85	41 658 500,00	0,80	336,15
6	Besh qaxramon MFY	0,90	44 109 000,00	0,95	399,18
7	Bobolochin MFY	0,75	36 757 500,00	0,85	357,16
8	Bobotog‘ MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14
9	Bog‘ora MFY	0,80	39 208 000,00	0,80	336,15
10	Boymoqli MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
11	Bo‘ston MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14
12	Cho‘kirli MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14
13	Davlatsoy MFY	0,70	34 307 000,00	0,80	336,15
14	Do‘stlik MFY	0,90	44 109 000,00	0,90	378,17
15	Elobod MFY	0,80	39 208 000,00	0,85	357,16
16	Galaba MFY	0,75	36 757 500,00	0,85	357,16
17	Guliston MFY	0,70	34 307 000,00	0,75	315,14
18	Gultepa MFY	0,75	36 757 500,00	0,90	378,17
19	Hunarmandlar MFY	0,75	36 757 500,00	0,85	357,16
20	Hurriyat MFY	0,80	39 208 000,00	0,80	336,15
21	Imomtepa MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14
22	Islomobod MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14
23	Istiklol MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
24	Jaloir MFY	0,75	36 757 500,00	0,85	357,16
25	Jarqishloq MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
26	Jiydali MFY	0,90	44 109 000,00	0,90	378,17
27	Joziba MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
28	Kattako‘l MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
29	Ko‘ganli MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14
30	Mexrobod MFY	0,80	39 208 000,00	0,90	378,17
31	Munchoktepa MFY	0,80	39 208 000,00	0,85	357,16
32	Mustaqillik MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
33	Navbaxor MFY	0,80	39 208 000,00	0,85	357,16
34	Neftchilar MFY	0,90	44 109 000,00	0,80	336,15
35	Nurli diyor MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14
36	Oktom MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14
37	Yangi O‘zbekiston MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14
38	Paxtaobod MFY	0,80	39 208 000,00	0,80	336,15
39	Qarsoqli MFY	0,80	39 208 000,00	0,85	357,16

40	Saxovat MFY	0,70	34 307 000,00	0,75	315,14
41	Sherozi MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
42	Surxon soxili MFY	0,85	41 658 500,00	0,90	378,17
43	Tayfang MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14
44	To‘da MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
45	To‘g‘on MFY	0,80	39 208 000,00	0,80	336,15
46	Ulug‘bek MFY	0,90	44 109 000,00	0,90	378,17
47	Umid nixollari MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
48	Uyas MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
49	Uzbekiston 5 yilligi MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
50	Xalaki MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
51	Xalqobod MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
52	Xo‘jamulki MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14
53	Xo‘jaqishlok MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
54	Yangi avlod MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
55	Yangi obod MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14
56	Yangi shaxar MFY	0,90	44 109 000,00	0,80	336,15
57	Yangi xayot MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14
58	Yangier MFY	0,85	41 658 500,00	0,85	357,16
59	Yangiqishlok MFY	0,75	36 757 500,00	0,80	336,15
60	Yuksalish MFY	0,75	36 757 500,00	0,75	315,14

Qishloq xo’jaligi uchun mo’ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalarining aniq miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

Qoraqalpogiston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari **0,5 dan 2,0 gacha bo’lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni** qo‘llagan holda, ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi;

tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari, ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida belgilangan soliq stavkalariga, Toshkent shahri uchun esa – ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga **0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni** ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritadi.

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2026-yil 8-yanvardagi
VII-14-1-8-114-K/26 -son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani kesimida Yer qaridan foydalanganlik uchun solig‘i qazib olingan foydali qazilma hajmi bo‘yicha quyidagi miqdorlarda belgilanadi: *(so‘mda)*

T/r	Shahar va tuman nomi	Bazaviy soliq stavkasi							2026 yil uchun taklif *(1.3 barobargacha oshiruvchi koeffisient)*						
		1. 2. **Arralanadigan xarsangtoshlar** *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo’ljallangan ohaktoshdan tashqari)*	**2. Tabiiy bezaktoshdan bloklar**	**3. Marmar**	**4. Granitlar**	**5. Gips toshi, gips va angidrid, ganch**	**6. G’isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar**	**7. Qurilish qumi, qumtoshlar qum-shag’al aralashmasi**	**1.**	**2.**	**3.**	**4.**	**5.**	**6.**	**7.**
1	**Qumqo‘rg‘on tumani**	**6 591**	**10 700**	**21 400**	**32 100**	**17 066**	**4 943**	**5 350**	**1**	**1**	**1**	**1**	**1**	**1.1**	**1.1**

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2026-yil 8-yanvardagi
VII-14-1-8-114-K/26 -son qaroriga
3-ilova

Qumqo‘rg‘on tumanidagi yer usti va yer osti suvlaridan foydalangan uchun belgilangan suv solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koyefflsentlar (so‘mda)

T/r	Hududlar	**2026 yil uchun taklif 0,7 gacha** *(1,1 gacha oshiruvchi koeffisiyent)*							
		Yer usti				**Yer osti**			
		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar **(749 so‘m)**	Sanoat korxonalari **(749 so‘m)**	Avtotransport vositalarini yuvish **(80 250 so‘m)**	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari) **(40 600 so‘m)**	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar **(910 so‘m)**	Sanoat korxonalari **(910 so‘m)**	Avtotransport vositalarini yuvish **(16 050 so‘m)**	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari) **(40 600 so‘m)**
1	**Qumqo‘rg‘on tumani**	756,5	756,5	81 052,5	41 066,6	919,1	919,1	16 210,5	41 066,6